



### INGLIZ TILI O'QITISHNING MAZMUN VA TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

**Shafokatov Otabek Alisherovich**

Yangi asr universiteti Tillar kafedrasida o'qituvchisi  
[fwffformula@gmail.com](mailto:fwffformula@gmail.com)

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.17933021>

**Annotatsiya.** Maqolada ingliz tili o'qitishning zamonaviy maqsad, mazmun va texnologiyalarini takomillashtirish, o'quvchilarda ingliz tili o'qitish metodikasini shakllantirish, amaliyotida to'plangan an'anaviy va xorijiy tajribalarni umimlashtirish, ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, ingliz tili, kommunikativ, atama, nutq, til, ko'nikma, ta'lim-tarbiya jarayoni.

**Аннотация.** В данной статье представлена информация о совершенствовании современных целей, содержания и технологий преподавания английского языка в начальном образовании, формировании методики обучения английскому языку учащихся младшего школьного возраста, обобщении традиционного и зарубежного опыта, накопленного на практике, а также об эффективной организации учебно-воспитательного процесса.

**Ключевые слова:** образование, английский язык, коммуникативный, термин, речь, язык, навык, учебно-воспитательный процесс.

**Annotation.** This article provides information on improving the modern goals, content, and technologies of teaching the English language in primary education, forming the methodology of teaching English to young schoolchildren, summarizing the traditional and foreign experiences accumulated in practice, and effectively organizing the educational process.

**Keywords:** education, English language, communicative, term, speech, language, skill, educational process.

Muloqotsiz shaxsning ichki va tashqi rivojlanishi, uning ta'lim va tarbiyasi, intellektualo'sish imkoniyati mavjud emas. Bir qarashda — muloqot sodda tushuncha bo'lib ko'rinishiga qaramasdan, u murakkab va mavhum jarayondir. Adabiyotlarda bu tushuncha haqida turli bir-biridan farq qiluvchi izohlar mavjud bo'lib, ushbu masala ustida turli soha va ilm-fan vakillari shu jumladan, filosof, psixolog, tilshunos, sotsiolog va madaniyatshunos olimlar shug'ullanib keladi. A.A.Leontev ta'kidlaganidek, muloqotning yuzaga kelishida asosiy omil bo'lib so'z boyligi ya'ni og'zaki nutq xizmat qiladi.

Zamonaviy xorijiy til o'qitish metodikasi uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida, xususan, oliy ta'limda ham og'zaki nutqni rivojlantirish masalasiga alohida ahamiyat qaratishni ko'zda tutadi. Bugungi kunda ta'lim oluvchilarni millat va madaniyatlararo munosabatlar, xalqaro hamkorlik aloqalariga tayyorlash muhim ustuvor vazifa sifatida belgilab qo'yilganligi talabalarning o'rganilayotgan xorijiy tildagi og'zaki nutq ko'nikma va malakalarini rivojlantirishni taqozo etadi.



Xorijiy tildagi lingvistik ko'nikmlarni shakllantirish masalasi jahonning taniqli olimlari P.Ya.Galperin, A.N.Leontev, V.V.Vigotskiy, N.I.Jinkin, I.A.Zimnyaya, Ye.I.Passov, A.A.Mirolubov, R.P.Milrud, N.D.Galskova, I.Geiz, I.L.Bim A.Buxbinder, P.B.Gurvich, A.N. Shukin, axborot texnologiyalar vositasida o'rgatish esa H.Reiders, E.S.Polat, R.Caudwell kabi tilshunos olimlar tomonidan ko'rib chiqilgan. Boshlang'ich ta'lim, ta'lim tizimining poydevori hisoblanib, o'quvchilarni o'qitish sifati unga bog'liq bo'ladi va bu boshlang'ich maktab o'qituvchisi zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Uzoq vaqt davomida ta'lim tizimida boshlang'ich maktab «ko'nikmalar maktabi» bo'lib keldi, ya'ni o'quvchi keyingi ta'lim olish uchun o'qish, yozish, hisoblash kabi asosiy ko'nikmalarni o'zlashtirishi kerak bo'lgan ta'lim bosqichi sifatida qaralgan. Bugungi kunda boshlang'ich maktab boshqacha tasavvur etiladi.

Ushbu bosqichda faollikni, mustaqillikni rivojlantirish, idrok etish faolligini saqlab qolish va bola ta'lim dunyosiga shaxdam kirib borishi uchun sharoitlar yaratish, uning salomatligini va emotsional xususiyatlarini mustahkamlash muhim. Bugungi kunda o'quvchilarning aynan mana shu sifatleri ta'lim jarayoniga AKTni joriy etish bilan rivojlanayotganligining guvohi bo'lmoqdamiz. O'z faoliyatimizda ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etib, ulardan foydalanib va o'quv jarayonida AKTdan foydalanish bo'yicha ma'lum tajribalarni to'plab bormoqdamiz. Axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha tajriba an'anaviy dars doirasida AKTni didaktik jihatdan to'g'ri qo'llanilgan hollarda o'quv jarayonini individuallashtirish va differentsiyalash uchun cheklanmagan imkoniyatlar paydo bo'lishini ko'rsatdi. Ular o'quvchilarga axborot manbalaridan foydalanish imkonini beradi, mustaqil ishlar samaradorligini oshiradi, ijodkorlik, malaka va ko'nikmalarni egallash va mustahkamlash uchun umuman yangi imkoniyatlar beradi, ta'limning yangi shakllari va metodlarini amalga oshirishga imkon beradi. Har bir o'quvchida shaxsiy o'quv yo'nalishini rivojlantirishni ta'minlaydi. O'quv jarayonida uni muvaffaqiyatli bilim olish uchun zarur bo'lgan asosiy jarayonlar sifatida fikrlashni, tasavvurni rivojlantirishga yo'naltirilgan katta o'zgarishlar sodir bo'ladi; o'quvchilarning idrok etish faoliyatlarini samarali tashkil qilish ta'minlanadi. AKTdan foydalanilganda ta'limda shaxsga- yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish oson bo'lib qoldi, butun o'quv jarayonini samarali tashkil qilish imkoniyati paydo bo'ldi. Dars jarayonida tayyor multimediali mahsulotlari va kompyuter ta'limi dasturlaridan, o'quv va sinfdan tashqari ishlarda Internet tarmog'i vositalaridan foydalanib, multimediali ta'lim dasturlari va taqdimotlar, loyihalar yaratildi. Axborot texnologiyalarini barcha o'quv fanlarda qo'llash mumkin. Darslarda o'quv va o'yin dasturlaridan foydalanish katta samara beradi.



Ingliz tilini o'rgatuvchilarning vazifasi faqatgina o'rganuvchilarni o'qitish yoki ularning ingliz tilidagi mahoratlari ya'ni o'qish, yozish, eshitish va gapirish kabi qobiliyatlariga ko'proq e'tibor qaratishgina emas, balki ularga ingliz tiliga bo'lgan ishtiyoq, yaxshi munosabat va zo'r motivatsiya berish orqali yordam berish va ruhlantirishdan hamiboratdir. Shunday bo'lishiga qaramasdan, bugungi kunda o'qituvchilar Ingliz tilini o'rgatishda bir qancha qiyinchiliklar va to'siqlarga duch kelmoqda. Bular quyidagilar:

1. Sinfning buzilgan muhiti. Ingliz tilini o'qitish va o'rganishda atrof-muhit juda muhim hisoblanadi. Sinfdagi bezovta qiluvchi muhit o'quvchilarni chalg'itadi va tilni o'rganishga salbiy ta'sir qiladi. Muvofiq va qulay muhit ingliz tilini o'rgatish uchunasosiy ehtiyojdir. Agar muhit o'quvchilar uchun mos va qulay bo'lmasa, u ingliz tilini o'qitish jarayonini buzadi. Ingliz tilini o'qitishda asosan o'qituvchilar shunday noqulay muhitga duch kelmoqdalar.

2. Cheklangan o'qitish resurslari. Nafaqat ingliz tili, balki biror narsani o'rgatish ko'p jihatli resurslarga bog'liq. Ko'pincha o'qituvchilar buday muammolarga duch kelmoqda. Ya'ni o'qituvchilarga talablarga ingliz tilini samarali o'rganish uchun zarur bo'lgan resurslar yetarli darajada taqdim etilmaydi. Bularsiz esa tilni o'rgatish va o'rganish juda qiyin bo'ladi. Resurslarga, dinamiklar, mikrofonlar, proyektorlar, kompyuter tizimlari va boshqa turdagi raqamli qurilmalar kiradi. Bular bilan esa o'qitishva o'rganish juda ham samarali va qiziqarli bo'ladi.

3. Sinfda o'quvchilarning ko'pligi. Sinfda ko'p sonli talabalrning bo'lishligi o'qituvchilar uchun juda ko'p bezovtalik va stressni keltirib chiqaradi. Chunki ko'p sonlitalabalarni o'qitish uchun o'qituvchilar ko'proq kuch va mehnatkashlik qilishlari kerak. Ko'p sonli o'qituvchilar tomonida yuzaga keladigan muammolar quyidagilar:

1. Shovqin qilib o'qituvchini bezovta qilishadi.
2. Sinf o'quvchilarni boshqarish qiyin bo'ladi.
3. O'quvchilarni o'rganishga jalb qilish juda qiyin bo'ladi.
4. O'quv resurslari barcha o'quvchilar uchun yetarli bo'lmaydi.

5. Cheklangan vaqt. Ingliz tilini o'rganish va o'qitishda vaqt juda ham muhim. O'qituvchilarga o'z o'quvchilarini kuzatish va ularni o'z darajasida o'qitish uchun vaqt kerak. Ammo, bu fanni o'qitish uchun ajratilgan dars vaqti juda oz. Bu esa o'qituvchilarni qisqa vaqt ichida dars berishlari uchun juda qiyin vazifadir.

6. O'quvchilar o'qituvchilarga bog'lanib qolganligi. O'qituvchilar duch keladigan yana bir e'tiborga molik muammo — bu talabalar to'liq o'qituvchilarga bog'liq. Ular o'zlarini o'rganishga va gapirishga harakat qilishmaydi. Talabalar har safar o'qituvchilarga o'rganishda yordam berishlari va ularga to'g'ri javob berishlari uchun murojaat qilishadi. Ingliz tilida so'zlashda so'z va jumalarni tuzatishga



harakat qilishmaydi. Ushbu muammo bo'yicha talabalar ingliz tilidagi turli xil zamon va so'zlarni nutqda ishlatishning texnik shartlarini o'rganmaganlar.

Muammolar va qiyinchiliklar bilan birgalikda albatta bularga yechimlar ham yo'qemas. Quyidagilar eng yaxshi yechimlardir:

1. *Sinflarda o'quv musobaqalari.* Ingliz tilini o'rganishda musobaqalar juda muhim rol o'ynaydi. Bu talabalarni ingliz tilini o'rganishga majbur qiladi, masalan, debatlar, viktorinalar va hokazo. O'quvchilar o'rtasida o'tkaziladigan turli musobaqalar ingliz tilini o'rganishni qiziqarli qiladi va ularni musobaqalarda qatnashishga va hamkasblari orasidan g'alaba qozonishga undaydi. Musobaqalar o'qituvchilar uchun ingliz tilini o'qitishni osonlashtiradi. O'qituvchilar o'quvchilar o'rtasida musobaqa mashg'ulotlarini tashkil qilishlari kerak.

2. *Dars davomida multimediyadan foydalanish.* Ko'pincha ingliz tili o'qituvchilari o'qitishda eski va an'anaviy usullardan foydalanadilar. Ammo ta'lim maqsadlarida maxsus ishlab chiqarilgan yangi qurilmalar va gadjetlar ingliz tilini o'qitish va o'rganishni yaxshilashi mumkin. O'qituvchilar o'z darslarida darsda multimedia vositalaridan foydalanishlari kerak. Bu ingliz tilini o'rganishni talabalar uchun yanada qiziqarli va tushunarli qiladi. Chunki o'quvchilar kitoblarda yozilgan o'rniga ko'rgazmali tasvirlar, videolar, tovushlar va hokazolar orqali fikrni oson anglab olishlari mumkin.

3. *O'yinlar orqali o'rgatish.* O'yinlar o'quvchilarni ko'proq jalb qiladigan faoliyat turidir. O'yinlar ta'lim va o'rganishda ham juda muhim rol o'ynaydi. Talabalar bilan sinflarda o'ynash mumkin bo'lgan ko'plab o'quv o'yinlari mavjud. O'yinlar so'z boyligini oshirishga yordam beradi. Har xil turdagi jumllarda etishmayotgan so'zni joylashtirish o'yini mavjud. Bu so'z boyligini juda ko'p shakllantiradi. O'quvchilar so'zlarning turlarini va ularning ma'nosini va ularning gapda joylashishini tushunishadi. Ingliz tilini o'rganish jarayonida o'qituvchilar sinfda o'yin o'ynash uchun foydalanishlari kerak.

Lingvistik kompetensiya bir komponenti hisoblangan so'z boyligi til belgilarining ifoda etilayotgan ma'lumot va axborot oqimi talabidan kelib chiqqan holda, muayyan qoidalar asosida berilishi va ruhiy-fiziologik artikulyatsion, ijtimoiy-madaniy faoliyatlar natijasi hisoblanadi. Tilshunoslikda so'zlashuv nutq faoliyati til mahsuli sifatida o'rganilsa, psixologiya uni muayyan individga xos bo'lgan nutqiy jarayon deb hisoblaydi. Ye.I.Passov bu jarayonda quyidagilarni ta'kidlab o'tadi: "...lingvistik kompetensiyaning ustuvor jihati shundaki, unda intonatsiya, mimika va imo-ishoralar orqali so'zlovchi tinglovchiga vaziyatning ikir-chikirlarigacha axborot bera olishi mumkin."

Bu kabi ko'nikmalarini shakllantirishning samarali usullaridan biri esa



boshlang'ich sinf dars mashg'ulotlarida axborot texnologiyalaridan interfaol tarzda qo'llay orqali o'quvchilarning A2 darjani egallashdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishdir. O'qituvchi avvalambor qaysi metodga asoslanib o'qitish lozimligini tanlashdan oldin, o'qitishning asosiy maqsadlari, maqsadlari yoki vazifalari va uning majburiyatlari haqida ko'proq bilishga tayyor bo'lishi lozim. Tayyorgarlikdan tashqari, o'qituvchilarda aktyorlik mahorati ham bo'lishi kerak, o'zgacha qilib aytganda o'qituvchi har sohada uddaburon va kompetentli bo'lishi, bilimlarni etkazish uchun noyob va ravon uslubda o'qitish kerak. Yoki o'qituvchi o'simliklar o'sayotgan jarayonini tomosha qiluvchi bog'bondek o'quvchini qo'llab-quvvatlab turishi kerak. Shuning uchun ham o'quvchilarning mavzni yaxshi tushunishi, tayyorligi va bilimni rivojlantirish uchun o'qituvchilar o'qitishda mos usuldan foydalanishlari kerak. Til o'qitish jarayonda til materiallarini qay tarzda o'qitishni rejalashtirish, tanlash va baholashning butun jarayonida aynan bir o'qitish usullari yoki texnikasidan foydalanish dars unumkorligini tushuradi. Demak, metodlar o'quvchi istak-hoxishi va mahoratidan kelib chiqqan holda tanlanishi, sinf kontekstini va o'quvchilarning darajasini hisobga olgan holda sinfda qo'llanilishi samarali sanaladi.

O'qitishning aynan o'ziga xos usuli va metodi qanday tanlanishi va dars jarayonida sinflarda qay holatda o'qitilishi va o'quv jarayoniga ta'sir qiladi. Dars mashg'ulotlaridan tashqari mustaqil holatda o'rganilish uchun ajratiladigan vaqtlar ham o'qituvchi bergan ko'rsatmalar asosida tilga doir o'rgangan bilimlarini maktabdantashqarida sinab ko'ruvchi vaziyatlar to'g'ri yaratilishi ham o'qituvchining malakasiga doir vazifa hisoblanadi. Chunki o'quvchilar fanga doir testlarga tayyorlanishlari bo'yicha maslahatlar olish, imtihondan oson o'tish, va imtihon materiallarni ko'rib chiqish uchun ham o'qituvchi bergan metodlar va texnologiyalar asosida amalga oshiriladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. J. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi: chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. – T.: O'qituvchi, 2012. – 75 b
2. Juraboyev, B. B. (2020). Nemis tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv. *Science and Education*, 7(7), 215-220.
3. Гальскова Н.Д., Никитенко З.Н. Теория и практика обучения иностранным языкам. Начальная школа: Методическое пособие. – М.: Айрисс-пресс, 2004. – 240 с.
4. Леонтьев А.А. Психолингвистические единицы и порождение речевого высказывания. – М.: URSS, 2007. – 306 с.
5. Maxmudov, Q. S., Shayxislamov, N. Z.. O'zbek va xorijiy tillarda antonimlar tavsifi, o'rni va ularning turli jihatdan tasniflanishi. *Science and Education*, 1(Special Issue 3). (2020).
6. Пассов Е.И., Кузовлева Н.Е. Урок иностранного языка. – М.: Голоса-Пресс, 2010. – 640 с.
7. Philips, S.. *Projects with Young Learners: Resource Books for Teachers*. – Oxford, New York: Oxford University Press.- 2002- P